

О'ZBEKISTONDAGI BAXSHICHILIK MAKTABLARI TARIXI

*Termiz davlat pedagogika instituti
Musiq ta'limi va san'at yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

Raximova Maysara

Ilmiy rahbar: Xolmirzayeva Feruza Mamaraim qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti
Musiq ta'limi kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda baxshichilik maktablarining kelib chiqish tarixi, ijodiy faoliyatlari hamda vakillari haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

O'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Boysun-Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari Qamay, Piskent, o'zbek-laqay va boshqa shunday markazlar ham ma'lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Masalan, XIX asrda Qashqadaryo, Qamashi tumanining Qamay qishlog'i bilan bog'liq "Qamay dostonchilik maktabi" mavjud bo'lgan. Bu maktab Dehqonobod va G'uzor tumanlari atrofida yashovchi Abdukarim Juyruq, Mulla Xolnazar o'g'li, Bozor Sherqul o'g'li, Hazratqul baxshi Xudoyberdiev kabi 60 ga yaqin baxshilarni birlashtirgan. Ular Shaxrisabz dostonchilik maktabi bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Qamay dostonchilik maktabi vakillari xalq dostonlarining lirik yo'nalishiga alohida e'tibor berishgan. Ular poetik shakllar taraqqiyotida Sherobod dostonchilik maktabi vakillariga nisbatan ilgarilab ketganlar. Qamay dostonchilaridan "Nuralining yoshligi", "Xonimoy" va boshqa dostonlar yozib olingan.

Piskent dostonchilik maktabi Berdi baxshi nomi bilan bog'liq. Mazkur maktab lirik yo'nalishga moyil, ba'zi jihatdan Ergash Jumanbulbul o'g'lining ota-bobolari asos solgan qo'rg'on dostonchilik maktabi baxshilariga yaqin poetik uslubga ega bo'lgan. Janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-laqay baxshilari Dang'ara tumanining Jorubko'l qishlog'i bilan bog'liq. Haybat Shamol o'g'li, To'la Haybat o'g'li, Mustafuqulov Qunduz o'g'li, Shomurod Shamol o'g'li va boshqa bu maktabning iste'dodli vakillaridan hisoblangan. Bu baxshilar repertuarining asosini "Go'ro'g'li" dostonlar turkumi tashkil qilgan. Ularning matni nihoyatda qisqa, ixcham.

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani hududida Ko'lbug'on dostonchilik maktabi shakllangan. Xaydar Boycha o'g'li, Razzoq qozoq o'g'li, Usmon Mamatqul o'g'li, Bo'ri baxshi, Mallavoy Hoshimovlardan yozib olingan xalq og'zaki ijodi namunalari bu maktabga Bulung'ur dostonchilik maktabi ta'siri kuchli bo'lganligini ko'rsatadi.

Shernazar Beknazar o'g'li 1855 yilda Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Azon qishlog'ida tug'ilgan - baxshi, dostonchi. Sherobod dostonchilik maktabi vakili. Baxshilar oilasida tug'ilgan, 9 - 10 yoshlaridayoq do'mbira chalib, kuylay boshlagan. So'ng Sherobodlik Qosim shoir baxshiga shogird tushgan. Sheroboddagina emas, Surxondaryo, Qashqadaryo, hatto Tojikiston va Turkmanistonda ham mashhur bo'lgan. Repertuarida ellikdan ortiq doston, termalar, do'mbira kuylari bo'lgan. Sherna baxshi Umir baxshi Safarov, Rajab baxshi Normurod o'g'li, Yusuf O'tagan o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li kabi yigirmadan ortiq shogird yetishtirgan. Xalq Sherna baxshi haqida rivoyatlar to'qigan.

Shaxrisabz dostonchilik maktabi - XX asr boshlarigacha o'zbek dostonchiligida mavjud bo'lgan o'ziga xos ijrochilik yo'li. Bu maktabning ayrim xususiyatlari ulkan xalq baxshisi Abdulla Nurali o'g'li ijodi va repertuarida saqlanib qolgan. Shaxrisabz dostonchilik maktabiga mansub baxshilar dostonlarni sho'x, quvnoq, ko'tarinki ruxda kuylashlari, kuylarining yoqimliliigi bilan ajralib turganlar. Abdulla shoir XIX asrning Shaxrisabzlik mashhur dostonchilari Xidir shoir, Ernazar shoirlar bilan bog'liq bo'lgan Rajab shoirning shogirdidir. Abdulla shoir ijrosi folklorshunoslar tomonidan ko'p kuzatilgan bo'lsada, uning repertuaridagi o'ndan ortiq doston deyarli yozib olinmagan. Shoirdan umrining so'nggi yillarida yozib olingan "Alpomish" dostoni u kuylab kelgan variant xususiyatlarini o'zida mukammal saqlay olmagan. Biroq uning boshqa baxshilardan farq qiluvchi ijro usullari Shaxrisabz dostonchilik maktabi haqida muayyan tasavvur bera oladi.

Sherobod dostonchilik maktabi – Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining bir necha tumanlari, Tojikiston va Turkmanistonning janubiy sarhadlarida yetishib chiqqan yuzlab baxshilarini birlashtirgan dostonchilik maktabidir. Surxondaryo va Qashqadaryoda dostonchilik an'alarining izchil rivojlanishi bugungi kunlarda ham davom etmoqda. Shuning uchun ham bu maktab vakillaridan XX asrning 40-yillarida yozib olingan dostonlarda dostonchilikning nisbatan quyi bosqich unsurlari, badiiy tafakkurning uncha rivojlanmagan shakllari uchraydi. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab esa an'alarining muayyanlasha borishi ma'lum ma'noda kitobiylikka intilish kuchayadi. Bunda iste'dodli xalq baxshisi Qodir baxshi Rahim o'g'lining (1936-1985) xizmatlari katta bo'ldi. Sherobod dostonchilik maktabidan Qosim ko'r, Sherna Beknazar o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Axmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Mamadram baxshi, Yusuf O'tagan o'g'li, Eshqobil baxshi, Bo'riboy Aqmedov, Qodir Rahim o'g'li kabi o'nlab dostonchilar yetishib chiqdi. Bugungi kunda Xushboq Mardonaqulov, Shoberdi Boltaev, Boboraqim Mamatmurodov, qora va Chori Umirovlar, qaqqor qodir o'qli, Abdunazar Poyonov kabi bir qancha baxshilar dostonchilik an'alarini davom ettirmoqdalar. Bu maktab vakillaridan yozib olingan "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Zayidqul", "Ollonazar

Olchinbek”, “Oychinor”, “Sherali”, “Kelinoy” kabi qator dostonlar O‘zbekistonning boshqa joylarida yashab o‘tgan baxshilar repertuarida uchramaydi.

Epik poeziyaning yaratuvchilari professor Xodi Zarif tekshirishlariga ko‘ra, ikki guruxga bo‘linadilar. Bunga sabab o‘tmishda turli sinflarning manfaatiga xizmat kiluvchi baxshilar va ularning o‘zlariga xos repertuari bo‘lgan. Birinchi guruxga Saroy shoirlari, kalandar, darveshsifat baxshilar kiradi. Chingizxon xuzurida uluq jirchi, To‘xtamishxon saroyida Kamolzoda va Jaxon mirza, Xiva xoni Muxammad Raximxon II xuzurida Riza baxshi, Buxoro amiri Nasrullo saroyida Ernazar kabi baxshilar bo‘lganligi ma‘lum. Xuddi shunday Saroy baxshilari tomonidjan xonu beklarni madx etuvchi asarlar yaratilgan. Ikkinchi gurux baxshilar bevosita oddiy xalq ommasi orasidan etishib chikkan, uning manfaatlarini ximoya kilgan xalk kuychilari bo‘lib, xalk yaratgan oqzaki badiiy ijodning eng yaxshi namunalarini saklagan dostonchi baxshilardir. Xar bir dostonchi yoki baxshilar guruxi o‘ziga xos poetik yo‘li, uslubi bilan bir-birlaridan fark kiladi. Boshkacha kilib aytganda, umumlashgan an‘ana doirasida ma‘lum baxshi yoki baxshilar guruxiga xos aloxida ijodiy xususiyatlar, yo‘llar, uslublar o‘zgachaligi mavjud. Folklorshunoslikda buni shartli ravishda baxshichilik maktablari deb yuritiladi.

Hozirgi kunda o‘zbek folklorshunosligida Bulung‘ur, Ko‘rg‘on, Shaxrisabz, Qamay, Sherobod, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari – baxshichilik san‘atining ajoyib markazlari aniqlangan.

1. Bulung‘ur baxshichilik maktabi vakillari qahramonlik dostonlarini ijro etishi bilan mashhur bo‘lgan. Bulung‘ur dostonchilik maktabining so‘nggi vakili Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li hisoblanadi. Undan “Alpomish”, “Yodgor”, “Yusuf bilan Axmad”, “Malikai ayyor”, “Zulfizar”, “Nurali”, “Murodxon”, “Rustam”, “Shirin bilan Shakar”, “Ra‘no bilan Suxangul”, “Zevaxon” kabi ajoyib dostonlar yozib olingan.

2. Ko‘rg‘on dostonchilik maktabining eng so‘nggi talantli vakillari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Po‘lkan shoirlar hisoblanadi. Bu talantli baxshilardan “Alpomish”, “Yakka Axmad”, “Oysuluv”, “Kuntug‘mish”, “Qironxon”, “Go‘ro‘qlining tug‘ilishi”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Gulnor pari”, “Xush keldi”, “Hasanxon”, “Chambil qamali”, “Dalli”, “Ravshan”, “Avaxon”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Xoldorxon”, “Elomon”, “Berdiyot otaliq”, “Zamonbek”, “Xidirali elbegi” kabi dostonlar yozib olingan. Manqishtovdan Nurotaga qadar cho‘zilgan silsila tog‘larning, ayniqsa, Oqto‘vning shimoliy va janubiy etaklarida yashagan va shu yerlarda yetishgan xalq shoir va baxshilari Qo‘rg‘on dostonchilik maktabiga mansubdir. Bu maktabga Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining ota-bobolari asos solgan bo‘lib, u Yodgor baxshi, Lafas, Mulla tosh, Mulla Xolmurod, Sulton kampir, Tilla kampir, Jolmon baxshi, Bo‘ron baxshi, Bo‘ron shoir, Jumanbulbul, Yorlakab, Jossok baxshi, Kulsamad baxshi, Ergash shoir, Po‘lkan shoir, Bo‘ta baxshi, Egamberdi baxshi, Mardi baxshi, Raxmatulla kabi o‘nlab dostonchilarni birlashtirib kelgandir.

3. Narpay dostonchilik maktabining vakili atoqli xalq shoiri Islom Nazar o'g'lidi. U ulkan dostonchi Rajab shoirning shogirdi bo'lgan. Talantli xalq shoiri No'rmon Abduvay o'g'li ham shu maktabga mansubdir. Ulardan yozib olingan "Orzigul", "Sohibqiron", "Erali va Sherali", "Zulfizar bilan Avazxon", "Gulixiromon", "Kuntug'mish" kabi dostonlarga nazar tashlar ekanmiz, bu maktab vakillari xalq dostonlarining shakli va saviyasini yanada kengaytirganliklarining guvohi bo'lamiz.

4. XIX asrda mavjud bo'lgan yana bir epik markaz Shaxrisabz dostonchilik maktabidir. Bu maktabning so'nggi namoyandasi Abdulla Nurali o'g'li yirik dostonchi Rajab shoirning shogirdidir. Bu bashxilar dostonlarni sho'x, quvnoq, ko'tarinki ruhda aytishlari, kuylarining yoqimliliği bilan ajralib turadilar.

5. Xorazmdagi o'zbek dostonchilik san'ati boshqa maktablarga mansub baxshilar uslubidan farq qiladi. Ularda so'z asosiy rol o'ynamaydi, balki musiqa yetakchilik qiladi. Xorazmda epik asarni baxshining bir o'zi yakka holda ijro etishi bilan birga, guruh ijrochiligi ham keng tarqalgan. Bunda dostonni ustoz baxshi dutorda boshlaydi, qolganlari unga g'ijjak va bolomonda jo'r bo'ladilar. Naqoratni esa hammasi birgalikda ijro etadilar. Xorazm baxshilaring kuylari ko'p va xilma-xildir. Dostonning har bir qo'shig'i muayyan kuyda ijro etiladi. Dostonchilar bularni baxshi yo'llari yoki baxshi nag'malari deb yuritadilar. Xorazm dostonchiligi reperturai jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan bu yerda "Alpomish"ga o'xshash qahramonlik dostonlari emas, ishqiy-romantik dostonlar ko'plab uchraydi.

O'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari Qamay, Piskent, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Masalan, XIX asrda Qashqadaryo, Qamashi tumanining Qamay qishlog'i bilan bog'liq "Qamay dostonchilik maktabi" mavjud bo'lgan. Bu maktab Dehqonobod va G'uzor tumanlari atrofida yashovchi Abdukarim Juyruq, Mulla Xolnazar o'g'li, Bozor Sherqul o'g'li, Hazratqul baxshi Xudoyberdiev kabi oltmishga yaqin baxshilarni birlashtirgan. Ular Shahrisabz dostonchilik maktabi bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Qamay dostonchilik maktabi vakillari xalq dostonlarining lirik yo'nalishiga alohida e'tibor berishgan. Ular poetik shakllar taraqqiyotida Sherobod dostonchilik maktabi vakillariga nisbatan ilgarilab ketganlar. Qamay dostonchilaridan "Nuralining yoshligi", "Xonimoy" va boshqa dostonlar yozib olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Radjabova, G. M. The educational value of oral folk art for preschoolers. European research, (1), 75.
2. Rajabova, M. G., Makkaeva, R. S. A., & Mahluff, A. (2021). Strategic framework for sustainable enterprise development. In Sustainable Development of Modern Digital Economy: Perspectives from Russian Experiences (pp. 35-43). Cham: Springer International Publishing.

3. Rajabova, M. (2021). O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO'LLARI VA SAMARADORLIGINI VAHOLASH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
4. Rustamova, I. K., Abdullayev, R. A., & Xolmirzayeva, M. F. (2020). Study of depression and anxiety prevalence in patients undergoing acute myocardial infarction. Вестник Казахского национального медицинского университета, (2-1), 628-629.
5. Amanbayevich, K. E. (2022). PHYSICAL AND MENTAL PRINCIPLES OF PREPARING TRADITIONAL SINGERS FOR LARGE ASHULLA PERFORMANCE PROCESSES. Scientific Impulse, 1(4), 288-291.
6. Arzikulovich, N. E. (2022). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF EXECUTIVE SKILLS IN THE NAY INSTRUMENT. Scientific Impulse, 1(4), 292- 296.
7. Bakhritdinova, F., & Kangilbaeva, G. (2022, June). Features of the angiography of the eye bottom in patients with diabetic retinopathy. 24th European Congress of Endocrinology 2022.
8. Amanovich, K. E. (2022). TRADITIONAL SINGING AND TRADITIONAL MUSIC SKILLS. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(2), 2
9. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Music as a Science and its peculiarities. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology.
10. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Dutar national instruments and performance methods. Analytical Journal of Education and Development, 1(06).
11. Qizi, K. M. E., & Ugli, C. S. N. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 67-71.
12. Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. Экономика и социум, (4-2 (95)), 211-214.
13. Xo'jageldiyeva, M. Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqa birlashtirishida tutgan o'rnini. International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education.
14. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923.
15. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 13-15.
16. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
17. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.

18. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923.
19. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 13-15.
20. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
21. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923
22. Kho'jageldiyeva, M. Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2(4).
23. Pardayevna, H. N. (2022). MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(3), 127-130.
24. Akramovna, S. S. (2021). Dutar National Instruments and Performance Methods. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 329-331.
25. ED Uktamovna. (2023). [FORM, METHODS AND MEANS OF FORMING CHILDREN'S MUSICAL ABILITY](#). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 58-62
26. HN Pardayevna. (2023). [UMUM TA'LIM MAKTABLARI "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINING MAZMUNI](#). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 63-66.
27. CS Nasriddin o'g'li (2023). [CONTENT OF MUSIC CULTURE LESSONS AND ELEMENTS ORGANIZING THE MUSIC EDUCATION SYSTEM](#). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 18 (8), 72-77